



ETNONIM ASOSLI TOPONIMLARNING YASALISHI (KONVERSIYA USULI)

M.Z.Safarova

BuxDU dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

(+99850) 515-85-58

Annotatsiya. *Ushbu maqolada etonimlarning joy nomlari hosil bo'lishida ishtiroki etishi, shuningdek, konversiya usulida toponim yasallishiga doir ayrim fikrlar bayon etilgan. Buxoro viloyati etnotoponimlarini lisoniy-tarixiy jihatdan tadqiq etish natijasida onomastik tizimda so'z yasallishining kompozitsiya, onomastik konversiya usullaridan keng foydalanilganligi bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *tilshunoslik, onomastika, toponim, etnonim, etnotoponim, joy nomi, yasallish, kompozitsiya usuli, konversiya usuli.*

Etnotoponimlarning yasallishi. Etnotoponimlarning yasallish hodisasi o'zbek tilidagi so'z yasallish usullaridan deyarli farq qilmaydi, etnotoponimlar ham so'zlarning alohida ma'no o'zgarishi natijasida yuzaga keladi. Shuning bilan birga, etnotoponimlar yasallishga doir o'ziga xoslikka ham ega. Buxoro viloyati etnotoponimlarini lisoniy-tarixiy jihatdan tadqiq etish natijasida onomastik tizimda so'z yasallishining kompozitsiya, onomastik konversiya usullaridan keng foydalanilganligi oydinlashdi.

Ma'lumki, o'zbek tilshunosligida so'z yasallish hodisasi alohida soha sifatida o'rganilib kelindi. So'z yasallishi hamda til lug'at tarkibi o'zaro bog'liq soha hisoblanadi. Professor A.G'ulomov [4; 7] va A.Hojiyevlar [2; 167] yasallish xususida shunday fikrga kelishgan: "So'z yasallishi, umuman qanday usul, qanday vosita bilan bo'lmasin, yangi so'z hosil qilishdir". Xullas, leksikaning so'z yasallishi bilan bog'liqligi, asosan, yasallish natijasida yangi leksemaning yuzaga kelishi hamda til lug'at tarkibining boyishiga xizmat qilishidir.

Bu ikki sohaning mustaqil va o'zaro bir-biriga yaqinligini A.Hojiyev fikrlari tasdiqlaydi: "So'z yasallishining leksikologiyaga yaqinligi va uning leksikologiya bahsiga mansubligi haqida gapirganda so'z yasallishi natijasida hosil bo'ladigan birlik, leksema bo'lish va bu birlik leksikologiyaning o'rganish obyekti ekani nazarda tutiladi. Lekin bu ikki xususiyat so'z yasallishining leksikologiyaga yaqinligiga ham, uni leksikologiyaga kiritish kerakligiga ham asos bo'la olmaydi. Shu sababli so'nggi yillarda yaratilgan ishlarda so'z yasallishi leksikologiya bahsiga mansub degan qarash uchramaydi" [1; 6]. Leksik-semantik usul, leksik usul, semantik usul yoki konversiya usuli, onomastik konversiya singari tushunchalar orqali so'z yasallishi va leksikologiyaning o'zaro munosabatini yaqqol ko'rish mumkin. Bu kabi usullar til lug'at tarkibining bir qismi sanalgan onomastik birliklar, xususan, etnotoponimlar yasallishida ham faol ishtirok etadi.

Onomastik konversiya usuli. Bu usul bir so'zning boshqa bir so'zga ko'chib o'tishi va yangi mazmunda qo'llanilishidir. Konversiyaga uchragan so'z o'zgarishga uchraydi, u bir



turkumdan boshqasiga o'tadi. Bunda ko'chgan so'zning ma'nosi va vazifasi o'zgaradi. Bu holatda so'z yangi ma'no va yangi vazifa bajarishga o'tadi.

K.Marqayev tadqiqotlarida, konversiya usulida boshqa vazifaga o'tgan so'zning shakliy holati asosiy rol o'ynashini va uning ikki xil ko'rinishi mavjudligini keltirib o'tadi: 1) so'z o'z mavjud shakli va tarkibida hech qanday o'zgarish yuz bermagan holda yangi vazifaga ko'chadi; 2) so'z shaklida yuz beruvchi o'zgarish yangi vazifaga ko'chgandan keyingi davrda yuz berishi mumkin. Misol uchun: qoramang'it etnonimi tarkibida mang'it so'zi shu shaklda ko'chgan, qora so'zi esa keyinchalik qo'shilib aytilgan. Bitta mang'it deb ataluvchi etnosni boshqa mang'it nomli etnosdan farqlash uchun unga qora so'zi qo'shilgan. Oqmang'it, ochmang'it, cholmang'it, qaramang'it, bog'undimang'it, to'qmang'it [3;104] kabi etnonimlarning bugungi kunda uchrashi buni tasdiqlaydi. Shuningdek, olim o'z nomzodlik dissertatsiyasida konversiya usulida etnonimga o'tuvchi so'zlarni leksik-grammatik jihatdan quyidagi guruhlariga ajratib ko'rsatadi:

1. Ot turkumiga mansub leksemalar: burqut (Buxoro shahri), ipakchi (Buxoro tumani), ayronchi (Romitan tumani), bo'zachi (Qorovulbozor tumani), yoychili (Qorako'l tumani), jig'achi (Qorako'l tumani), tikonchi (Buxoro tumani), kelachi (G'ijduvon tumani), kulolchi (Vobkent tumani), qaymoqchi (Qorako'l tumani), qirg'ichi (Jondor tumani), qo'rchi (Olot tumani), qushchi (Peshko' tumani), mo'ynachi (Qorako'l tumani), pichoqchi (Olot tumani), po'lotchi (Kogon tumani), surmachi (Qorako'l tumani), tikonchi (Buxoro tumani) va b.

Yuqorida ko'rsatilganidek, bu tasnif asosida ot leksemasiga mansub etnonimlar Buxoro viloyatining ko'pgina hududlarida tarqalganligi aniqlandi.

2. Sifat turkumiga mansub leksemalar: chandir (Shofirkon tumani), qizilon (Shofirkon tumani), shirin (Vobkent tumani), qara va oq (ushbu so'zlar bilan bog'liq tarzda yasama etnotoponim viloyat hududida juda ko'plab uchraydi, buni II bobda keltirib o'tdik), ko'sa (Vobkent tumani) va h.k.

3. Son turkumiga mansub leksemalar: ming (Romitan, Vobkent, Shofirkon, G'ijduvon tumanlarida joy nomini atash uchun qo'llanilgan), yuz (Buxoro tumanida), besh (Buxoro tumani), nayman (Vobkent, G'ijduvon tumanlarida), qirq (Romitan, G'ijduvon tumanlarida), do'rmon (Vobkent, Shofirkon, Qorako'l), yetti hamda sakkiz (Vobkent tumani) so'zlari bilan bog'liq nomlar ham uchraydi.

4. Ba'zi genetik jihatdan yasama, ammo hozirda tub so'z deb tushuniluvchi leksemalar: saroy (Vobkent, G'ijduvon, Romitan, Peshko', Shofirkon tumanlarida), ilonli (Qorako'l tumanida), xalaj (Vobkent tumani), qozon (Qorako'l tumani) kabi nomlar ishtirokida yasalgan etnotoponimlar viloyat hududida mavjud.

5. Hozirda ma'nosi qorong'ulashgan ba'zi tub, arxaik so'zlar: arg'u (manbalarda arqu shaklida uchrasa-da, arg'in, org'un kabi variantlari bo'lib, Buxoro viloyatining Kogon tumanida shu nomdagi joy mavjud), orlot (Olot, Peshko' tumanlari), qiyot (Shofirkon, Romitan tumanlarida), uyrot (Kogon tumani), qozoq (Jondor tumani) va b.

6. Tub yoki yasama strukturaga ega bo'lgan o'zlashma leksemalarga nisbat berilgan etnonimlar: arab//arap (bu etnonim bilan bog'liq toponimlar viloyatning Qorovulbozor



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



tumanidan tashqari, barcha tumanlarida uchraydi), jugut (Buxoro tumani), kal (G'ijduvon, Shofirkon tumanlari) va b.

7. Kishi atoqli otlari asosida hosil bo'lgan etnonimlar: kichikboy (Buxoro tumani), alieli (Jondor tumani), bo'ribek (Olot tumani), xidreyli (Olot tumani) va b [3; 104-105]. Etnonimshunos olim tomonidan keltirilgan ushbu tasnifda ko'rsatilgan etnonimlardan konversiya usuli orqali viloyat hududida ko'plab joy nomlari yasalganligi aniqlandi.

Demak, konversiya usuli etnonim yasashda ham, etnotoponim yasashda ham birdek xizmat qiladi. Bu usul orqali leksemalarning etnos nomiga o'tishi, etnonimlarning esa atoqli otga ko'chishi leksikologiya va so'z yasashini birlashtirib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ҳожи́ев А. Ўзбек тили сўз яса́лиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б. 6.
2. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 167.
3. Марқаев К. Ўзбек тили этнонимларининг лисоний тадқиқи: Филол. фанл. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. – Б. 104-105.
4. Ўзбек тили грамматикаси. I том. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 7.